



## BUXORO VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Buxoro viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 17 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 24167 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

2016 yilda Buxoro viloyatiga 14.7 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan. Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 24.2 ming nafarni tashkil qilib, asosiy qismini chet el fuqarolari – 14,7 ming nafarni va 9,5 ming nafari O'zbekiston fuqarolarini tashkil qildi.

1- diagramma

**2016 yilda Buxoro viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning xorijiy va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasidagi ulushi, foizda**



2016 yilda Buxoro viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 2507 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 1509077 mln. so'mni tashkil qildi.



## 2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati


	Soni, birlik	Qiymati, mln.so'm
<b>Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami</b>	2507	1509077
Ulardan bevosita aholiga	2507	1509077
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	2451	1050490
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga		
O'zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariga	3	6828
O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	53	451759

2016 yilda sayyohlik yo'llanmalarining 100,0 foizi (2507 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan.

## 2016 yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati



2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 102 tani tashkil qildi. 99 tasi mehmonxona bo'lib ulardan, 28 foizi bir yulduzli, 5 foizi 2 yulduzli, 15 foizi 3 yulduzli, 3 foizi 4 yulduzli va 49 foizi toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalardir.



*Buxoro viloyat statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistika bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: F.Xafizova  
Tel: (0371) 230-83-18*